

Okila TURAKULOVA,

Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek tili ta'limi fakulteti dotsenti

E-mail: shahrizodf@mail.ru;

Hamid Ergashev,

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti
universiteti 3-kurs talabasi

SHOIR SHAXSI VA IJODIGA XOS SAMIMIYAT

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyotimiz yetuk namoyandası Abdulla Oripov ijodi zarvaraqlari, she'riyatining millatimiz osmonida kamalakdek tovlanib turishi, turfa xil adabiy-tanqidiy qarashlari, ijodiy jarayonining murakkab qirralari yuzasidan fikr-mulohazalar berilgan. Ushbu maqolada she'riy ijodi haqida tahlil qilingan. O'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida mulohazalar keltirilgan

Kalit so'zlar: shoir, she'r, til sofligi, she'riy uslub, jabrdiyda, tanqidiy, muallif, madhiya, avj pardalari, xalq, ijodkor.

Аннотация: в данной статье представлены сведения о творчестве выдающегося представителя узбекской литературы Абдуллы Арипова, характерные черты его поэзии, различные критические и литературные взгляды к его творчеству, а также сложные грани его творческого процесса. Проведено аналитическое исследование поэтического наследия поэта, и роли поэта в узбекской литературе.

Ключевые слова: поэт, стих, чистота языка, поэтический стиль, мученик, критический, автор, гимн, высокий тон, народ, творитель.

Annotation: this article provides information about the work of a mature representative of our literature, Abdulla Aripov, about the artistic properties of his poetry, about literary critical views on his work, about the complex facets of his creative process. An analytical study was carried out on the poet's poetic work and his place in Uzbek literature.

Keywords: poet, poem, purity of language, poetic style, victim, critical, the author, hymn, climax curtains, people, creative.

Hozirgi o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyat jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy jihatidan yuksalishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: „Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzyiy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz“. O'zbek she'riyati tarixidan bizga shu narsa ma'lumki, har bir shoir ijodi o'ziga xos mahorat maktabi sanaladi. Har qanday yozuvchi yoki shoирning ijodiy kamolotga erishivi, eng avvalo, uning milliy g'oya va qadriyatlarga sadoqati hamda ularni o'z ijodida poetik jihatidan nechog'lik mahorat bilan yuksak darajada ifodalay olish imkoniyatiga bog'liq. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri, Navoiy mukofoti sovrindori Abdulla Oripovning el qalbiga yo'l topib uning mehr-u muhabbatiga sazovor bo'lganligining ham sababi shunda. Abdulla Oripov ijodi nafaqat adabiyotda, balki umumturkiy adabiyot kontekstida o'ziga xos mavqega ega.

Abdulla Oripov haqida so'z ketganda, o'zbekning tanti va jaydari farzandi ko'z oldimizda gavdalanadi. Shoир, o'z xalqining orzu-umidları va inson qalbi istiroblarining ifodachisidir. Iste'dodli shoир Abdulla Oripovning ijodi faqat she'riyat va tarjima asarlardan iborat emas. Uning turfa xil adabiy-tanqidiy qarashlari ham mavjud bo'lib, ularda iste'dod, talant, she'riyat haqidagi qarashlar, ijodiy jarayonning murakkab qirralari bilan anglashga qaratilgan talaygina asarlari ham mavjud.

Abdulla Oripov-rostgo'y ijodkor sifatida xalqimizning quvonchiga ham, dard-u g'amiga ham birdek sherik inson edi. Shunga ko'ra uning ijodida shodlik va quvonch tuygusi ko'pincha tashvish, dard-u alam tuyg'usi bilan uzviy birlikda namoyon bo'ladi. Shoир xalqimizning halol ishlab, halol yashayotganidan qanchalik shodlansa, ba'zi kishilarimizda mehr-oqibat, to'g'rilik va sadoqat yo'qolib borayotganidan shunchalik tashvishlanadi, iztirob chekadi. Abdulla Oripovning o'z xalqi taqdiringa dildan achinib, kuyunchoqlik bilan: „Qarshingda hasratli o'yga tolaman, Qachon xalq bo'lasan, sen ey, oloman!-deb nido qilishi ham ana shuning natijasidir.

Abdulla Oripov-ulug' millatning ulug'vor va o'lmas qo'shigiga muallif bo'lgan inson, xalq shoiri. O'zbekistonning qahramon o'gloni, tanti elning tanti farzandi, millatning jo'shqin va so'nmas ovozidir.

She'rlarida erkni, ozodlikni, insonga muhabbatni avj pardalarida kuylagan, muqaddas zamin-O'zbekistonimiz kelajagini o'tli qo'shiqlarida tarannum etgan shoир xalq mehriga, e'zoziga, Vatanning eng yuksak unvonlariga sazovor bo'ldi.

Bugungi kunda Abdulla Oripov she'riyati millatimiz osmonida kamalakdek tovlanib turibdi. **Shuningdek, Respublikamizning birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Davlat madhiyasining muhokamasiga bag'ishlangan majlisda: „Abdulla Oripovdek shoirlar yuz yilda bir marta dunyoga keladi“-deb aytgan edi.** Shoир badiiy adabiyotga kirib kelgan ilk kunlaridan boshlab, Vatan, ona tabiat, til sofligini saqlab

qolishga doir mavzularni qalamga oldi. Dastlabki she'rlaridan tortib, to umrining so'nggi damlarida yozilgan asarlarining barchasida ifodalangan millat manfaati, samimiyat, haqiqatga xizmat qilish kabi tushunchalar shoir hayotining bosh a'moli ekanligini ko'rsatib turibdi.

O'z asarlarini sodda tilda ijo etuvchi shoir, she'rlari orqali ona tilining ahamiyati, O'zbekistonning qadimiy tarixi, o'zbeklarning o'ziga xos madaniy xususiyatlari haqida gapiradi. Ko'rinish turibdiki, shoir o'z asarlari orqali O'zbek xalqini tarbiyalashni, ongini oshirishni hamisha o'z oldiga vazifa qilib olgan. Shuningdek, shoirning so'z boyligi, she'riy uslubi, o'zbeklarning she'riy qudratidagi ma'no olamini ochib beradi.

O'rta Osiyo she'riyatida Chingiz Aytmatovga o'xshab fikrlaydigan shoir Abdulla Oripovdir. Abdulla Oripov she'rlari Chingiz Aytmatov asarlaridek jahonga mashhur bo'lib ketmadni. Shoir she'rlarini boshqa tillarga deyarli tarjima qilib bo'lmaydi. Buning uchun tarjimon iste'dodi va mahorati shoirnikidan kam bo'lmasligi lozim. Abdulla Oripov she'rlarining eng katta mavzularidan biri, Matyoqub Qo'shjonov yozganidek, „katta harf bilan yozilishi kerak bo'lgan insoniy mehrdir“

Darhaqiqat, Abdulla Oripov qiyin va murakkab ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Zotan, she'riyatimizda u yangi tuyg'ularni kuyladi, kashf etdi. Vatan, xalq, inson erki, ravnaqi, iqboldi Abdulla Oripov ijodining bosh mavzularidir. Shu o'rinda ozorbayjonlik olim, o'zbek adabiyotining chinakam do'sti Yashar Qosimovning ba'zi fikrlarini eslash maqsadga muvofiq: „60-yillar yosh shoirlarini... „Men nechun sevaman O'zbekistonni? savoldan o'ylarga tolgan, uyg'ongan avlod deb atash mumkin. Ha, bu benihoya otashin va samimiy she'r turli kurash qatag'onlarda holdan toygan, o'zining sevimli va fidoyi farzandlaridan Stalin istibdodi tufayli ajralgan jabrdiyda Vatanga shunchaki sevgi izhori emasdi. Bu she'r sevgidan ham ulug'vor, muhabbatdan ham muqaddas tuyg'ulardan, qandaydir so'z ta'rifiga sig'maydigan, ilohiy jozibador kechinmalardan tug'ilganday edi.“ O'z fikrini davom ettirib, munaqqid adabiyot mustabid mafkuraga bo'yundirilgani bois, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'pon va Abdulla Qodiriydan keyingi yarim asrlik adabiy harakatda xalq hayotining Abdulla Oripov ijodigadek jonli va ta'sirchan tasvirini ko'rmaymiz, deydi. Va shunday xulosa qiladi: „Badiiy va ijtimoiy fikrni ushbu qullik va mutelik asoratidan xalos etishga bel bog'laganlardan biri, ehtimolki, birinchisi Abdulla Oripov edi. Butun vujudimga chirmovuqday chirmashgan, hatto, qalbimizga va fikrimizga ham hukm o'tkazayotgan manfur mafkuraning dahshatli asoratini ilk bor u yorib chiqdi. Abdulla Oripov lirikasi milliy ruhning dastlabki va buyuk g'alabasi edi.“ Shoirning shodligiyu ezgu dardlari ona xalqi tufaylidir. Xalqining mehnatsevarligidan, ushoq chigitni ham uvol qilmasligidan faxr tuysa, og'ir mehnat tufayli ezilib ketganidan, hatto tevarak-atrofidagi kuz go'zalligidan zavq olishga imkon yo'qligidan qayg'uradi:

**Bir nafas boshingni ko'targin-u, boq:
Yer yuzida ajib viqor va nufus.
Sening o'zing kabi o'ychan va quvnoq
Xushfe'l bo'lib kelmish tuprog'ingga kuz.**

Kuz tasviridan shoir falsafiy mushohadaga o'tadi. Zamon va makon kengayadi: kuz-hosilni, yaratuvchi mehnatni, hayot to'kin-sochinligini, umrni hisob-kitob qiladigan fasli.

Binobarin, O'zbekiston Prezidenti ta'biri bilan aytganda, "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda, O'zbekistonda yangi bir uyg'onish-Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki, bugungi O'zbekiston-kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.“ Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovdan shunday ulug'vor, ishonchli va qudratli ijod mahsullari xalqimizga, butun insoniyatga ma'nnaviy meros bo'lib qoldi. Abdulla Oripov nafaqat atoqli shoir va tarjimon, ayni chog'da, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi, taniqli davlat va jamoat arbobi, dilkash va oqibatli inson sifatida ham xotiramizda abadiy saqlanib qoladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Turakulova O.A. Reading in students during textual analysis as a means of developing culture. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain, 2020. – №.10. – P.181-188. (13.00.00. № 3).
2. "Kechirimli...bag'ri keng bo'lish kerak!" Chag'anixon gazetasi. 2004.18-iyun Suhbatdosh: Nazira Inoyatova.
3. A.Oripov. Adolat ko'zgusi.-T., „Fan" nashriyoti.
4. Qo'shjonov M. Onajonim she'riyat. T., "O'qituvchi" nashriyoti, 1984.32-bet.
5. Qo'shjonov M, Suvon Melining , "A. Oripov (T., Ma'nnaviyat, 2000)" kitobiga so'z o'rnida yozilgan Yashar Qosimovning, "Istiqlol she'riyati" maqolasidan olindi. 129-133-bet.
6. Saidov A. Akademik. "Shoir shaxsi va ijodiga xos samimiyat". Qashqadaryo gazetasi. 2022-yil 12-may №019 (15845) 3-bet.
8. Turakulova O.A. Reading in students during textual analysis as a means of developing culture. European